



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI




ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ



19-oktabr 2021-yil

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ

МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО МУСИҚА
ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ
МАСАЛАЛАРИ

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

19 октябрь

Бухоро - 2021

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февральдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 31.05.2017й. ПҚ-3022 маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида"ги 2018 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3990-сон қарорига мувофиқ **2021-йил “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”**га бағишланган 2021 йил 19 октябрь куни Бухоро давлат университетида **“Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари”** мавзусида илмий-назарий анжуман ўтказилмоқда.

Анжуманнинг мақсади-миллий, маданий ва маънавий меросимизни асраб-авайлаш ва бойитиш, ўзбек мусиқа фольклорини жумладан, Бухоро мавриги ва тароналарини янада ривожлантириш, ёшларнинг маънавий-ахлоқий ва маданий даражасини янада оширишни рағбатлантириш, миллий ва жаҳон маданиятининг энг яхши намуналари билан таништириш, ёшлар онги ва қалбида мустақиллик ғоясига, юқори маънавият ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғуларининг янада чуқур илдиз отиши, эстетик ва маданий эҳтиёжларни таъминлашга йўналтирилган маданий-оммавий тадбирлар ўтказиш, ижодкор ёшларга ҳар томонлама кўмаклашиш, маънан етук, интеллектуал ривожланган ва юқори маданиятли шахсларни тарбиялаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш ҳамда Республикада ушбу соҳада эришилган илмий натижаларни амалиётга татбиқ қилиш.

Масъул муҳаррир:

Б.Х.Мадримов – педагогика фанлари номзоди,
профессор.

Такризчилар:

Б.Мустафоев – педагогика фанлари номзоди, доцент
А.Р.Ҳамроев – педагогика фанлари номзоди, доцент

Тўпламга киритилган мақола ва тезислар мазмуни, илмийлиги
ва далилларнинг ҳаққонийлиги учун муаллифлар масъулдирлар.

ИЛМИЙ АНЖУМАННИНГ ДАСТУРИЙ ҚЎМИТАСИ

1. О.Х.Хамидов - Университет ректори, раис;
2. О.С.Қахҳоров - Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис ўринбосари;
3. С.С.Азимов - Санъатшунослик факультети декани, п.ф.ф.д. (PhD), доцент, аъзо;
4. Т.И.Ражабов - Муסיқа таълими кафедраси мудири, п.ф.ф.д. (PhD) доцент, аъзо;
5. Б.Х.Мадримов - Муסיқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо
6. С.Д.Дўстов - Муסיқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо;
7. Д.Ю.Рузиев - Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо;
8. У.М.Миршаев - Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиб;

ИЛМИЙ АНЖУМАННИНГ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИ

1. О.С. Қахҳоров - Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис;
2. С.С.Азимов - Санъатшунослик факультети декани, раис ўринбосари;
3. Т.И.Ражабов - Муסיқа таълими кафедраси мудири, п.ф.ф.д. (PhD) аъзо;
4. Б.Х.Мадримов - Муסיқа таълими кафедраси профессори, п.ф.н., аъзо
5. Ф.Г.Нуруллаев - Муסיқа таълими кафедраси доценти, аъзо
6. И.А.Қўшаев - Муסיқа таълими кафедраси аъзо катта ўқитувчиси,
7. У.М.Миршаев - Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиб
8. Т.Дж.Мухамедов - Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо

darajadagi umumiy musiqiy tayyorgarlikka ega. Ovozi ancha mustahkamlangan bo‘lib diapazon (re 1—si 1)kengaygan. Nafas biroz mustahkamlangan, chuqqurlashgan, so‘zlarni to‘g‘ri to‘laffuz qilish malakalariga egadir.

Asosiy vazifa:

1. Tabiiy tovushda zo‘riqmasdan kuylash. Bu malaka ustida muntazam ravishda ish olib boriladi.

2. To‘g‘ri nafas olish, ya‘ni bir jumlani bir nafasda kuylash.

3. To‘g‘ri talaffuzga e‘tibor berish

4. Artikulyasiya ustida ishlash (qo‘shiq ijrosi vaqtida og‘izni to‘liq ochishga, past jag‘ni zo‘riqtirmasdan, siqmasdan ochib kuylash).

5. Ansambl malakalari — qo‘shiqni birga boshlab, birga tugatishga erishish. Bu yoshdagi bolalarni jo‘rsiz ijroga o‘rgatish (yaxshi o‘rganilgan va mustahkam biladigan qo‘shiqni jo‘rsiz aytishi mumkin) kerak.

Metodik usullar:

1. Qo‘shiqni o‘rgatish jarayonida fortepiano jo‘rligida yoki jo‘rsiz olib boriladi.

2. Musiqa rahbarining ovozidan kuylashga o‘rgatish bolalar uchun osonlashadi.

3. Qo‘shiq o‘rgatish jarayonida musiqiy jummalarni bolalarni guruhlariga bo‘lib, navbatma-navbat aytirish (bunday metodni qo‘llashdan maqsad bolalarning eshituv jarayonini va diqqatini rivojlantiradi).

4. Cho‘zib kuylash malakasini o‘stirish (kontelenno ijrosi). Bu yoshda kuylash oldidan ovoz sozlash mashqlariga katta e‘tibor beriladi. Mashqlar bolalarda qo‘shiqchilik ovozini va qo‘shiqchilik nafasi rivojiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirova N. Xorazm «oshiq» turkumi dostonlari. T. «Minxoj» 2005

2. Qosimov N. Musiqa folklor ijrochiligi. T. 2000.

3. Raxmatjon Tursunov. “Xalq musiqi ijodiyoti va adabiyoti” “Ma‘rifat-Madadkor” nashriyoti Toshkent 2002yil.

4. D. Omonullaeva “Maktabda musiqa tarbiyasi va metodikasidan leksiya kursi (musiqa pedagogikafakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)”. Toshkent 2002

XALQ CHOLG‘ULARIDA O‘QITISH USLUBIYOTI **Karimov O.I., BuxDU musiqa ta‘limi kafedrasida dotsenti**

Yosh avlodni tarbiyalashda, avvallambor, mutaxassis o‘qituvchilar o‘zlari barcha namunali xislatlarni mujassamlashtirgan bo‘lmog‘i zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzalarida, *“Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyligimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi”* - degan fikrlari hammamizni to‘lqinlannirib yubordi.

Hamma sohada o‘qituvchilar vijdonli, kamtar, ma‘naviy va axloqiy pok, yoshlarga g‘amxo‘r, yaqindan maslakdosh, o‘z kasblariga hurmat, e‘tiborli va sadoqatli bo‘lmoqliklari kerak. Yoshlarni ham ana shu fazilatlar bilan tarbiyalamoq, kelgusida barcha sohadagi kabi an‘anaviy musiqa merosimizning borgan sari zargarona

sayqallashuvida va rivojlanishida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq cholg'ularining tarixi qadimdan o'rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o'tgan O'rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg'ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomini, mashhur musiqiy asarlar nomini uchratish mumkin. O'zbek an'anaviy musiqasini yig'ish va o'rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug'ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyxgorn va F.Leysiklardir. Xususan, A.Eyxgorn turli guruhlariga kiruvchi 36 ta xalq cholg'usidan iborat katalogni tuzgan.¹

Xalq cholg'ularini yig'ish va o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919 - yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo'lim ochiladi va u bu bo'limga rahbarlik qiladi. Bu bo'lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg'ulari kolleksiyasini yig'ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish bo'ldi. O'zbek musiqasini o'rganish tarixida keng ko'lamdagi olim, iste'dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir. V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o'tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o'rganishi uchun katta turtki bo'ldi. Musiqa nazariyasini o'rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning o'zbek xalq cholg'ulari rivoji tarixi bo'limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o'lchash ishlari katta qiziqish uyg'otadi.

1933 - yili Moskvada V.M.Belyayevning "O'zbekiston musiqiy cholg'ulari" nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg'uning tavsifi berilgan. Kitobda birinchi marta o'zbek xalq cholg'ulari ilmiy darajada tasniflangan. Xulosa qilib muallif quyidagicha fikrlaydi: o'zbek xalq cholg'ularining musiqiy madaniyatni rivojlantirishda keng qo'llash uchun ularni qayta ta'mirlash, nota yozuvini kiritish kerak. An'anaviy musiqa cholg'ularini o'rganish va ularda ijro etishni o'rgatish masalalari bo'yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg'ularni qayta ta'mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordi. A.I.Petrosyans "Cholg'ushunoslik" kitobida xalq cholg'ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo'llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan. Ancha yillar mobaynida ta'lim usuliyoti shakllandi. Xalq cholg'ularini qayta ta'mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko'nikmalari ishlab chiqildi.²

Cholg'uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o'tilishi o'quv repertuari ustida ko'p ishlashga, xalq cholg'ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi. Xalq cholg'u ijrochilariga ta'lim berishning usuliy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo'nalishda olib borildi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston davlat konservatoriyasi xalq cholg'ulari kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar chop ettirildi. Xalq cholg'ularida ijrochilik maktablari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, xalq cholg'ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo'yicha o'quv-qo'llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg'ulari

¹ Karimov O.I., O'quv qo'llanma "Cholg'u ijrochiligi va ansambli" Buxoro- 2019y. 15 bet

² Karimov O.I., O'quv qo'llanma "Cholg'u ijrochiligi va ansambli" Buxoro- 2019y. 16 bet

yoʻnalishi boʻyicha musiqiy taʼlimning boshlangʻich boʻgʻini uchun taʼlim asoslari shakllandi.

Xalq cholgʻularida ijrochilik usuliyotini takomillashtirishni quyidagi asosiy bosqichlargaboʻlish mumkin:

1.Zamonaviy umumiy va musiqiy pedagogika, psixologiya va didaktika masalalarini chuqur oʻrganish.

2.Maxsus usuliyotlar natijalarini, dars berish tajribalarini oʻrganish va umumlashtirish.

3. Oldingi maktablar hamda yoʻnalishlarni tanqidiy tahlil qilish, buning natijasida zamonaviy taʼlim rivoji tamoyillarini ishlab chiqish.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib holda shuni taʼkidlashimiz kerakki, bugungi kunda zamonaviy talablarga javob beruvchi oʻzbek xalq cholgʻularini oʻqitish usuliyotini, taʼlimning har bir bosqichiga (boshlangʻich, oʻrta, oliy) alohida, oʻziga xos ravishda yondashib, kelajakda yangi avlod adabiyotlarini yaratgan holdagina kasbiy tayyorgarlikning sifatini taʼminlashimiz mumkin. Birinchi navbatda musiqiy maktablar, ixtisoslashgan sanʼat maktablari va oliy oʻquv yurtlari uchun zamonaviy talablarga javob beruvchi oʻquv dasturlarini yaratish va ijrochilik sanʼati madaniyatini yuqori saviyada tarbiyalash masalalarini hal etishimiz lozim boʻladi.¹

Adabiyotlar

1.S.B.Saidiy. Cholgʻushunoslik va cholgʻulashtirish asoslari.-Darsligi. “Musika” nashriyoti. Toshkent- 2016.

2.S.B.Saidiy. Oʻzbek xalq cholgʻulari uchun partitura va klavirlar. “Musika” nashriyoti. Toshkent- 2015.

3.M.A.Ilxomov. Cholgʻu ijrochiligi. ”Mehnat nashriyoti”, T., 2010.

4.X.Nurmatov.O.Fayziev. “Cholgʻu ijrochiligi rubob” oʻquv qoʻllanma T.2009.

5.Sh.Rahimov. X. Nurmatov. “Cholgʻu ijrochiligi tarixi” oʻquv qoʻllanma. T.2009.
6.X.Nurmatov. “Rubob darsligi”. Toshkent. Oʻqituvchi nashriyoti. 1993.

7.Karimov O.I., Oʻquv qoʻllanma “Cholgʻu ijrochiligi va ansambli” Buxoro- 2019y.

8. A.I.Petrosyans, Instrumentoveayeniye (Uzbekskiy narodnye instrumenti) **Toshkent- 1980.**

OʻZBEK XALQ QOʻSHIQLARINI OʻRGANISHDA HOFIZLIK SANʼATI

Raxmatova M.O., BuxDU Musika taʼlimi kafedrasi oʻqituvchisi

ANNOTASIYA: Musika sanʼati insoniyatning maʼnaviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak kamolotining belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib keladi. Unda har bir xalqning milliy anʼanalari, urf-odatlarini, marosim va qadriyatlarini munosib oʻrin olgan. Yoʻnalishlar qatorida hofizlik sanʼati eng qadimiysi, amaliy tajribada pishgan va amaliyot jarayonida mukammallikka erishgan tarmoqlardan biri sifatida shakllangan. Hofizlik musika sanʼatining barcha tarmoqlariga birdek taʼsir etadigan hamda bir meʼyorda va ibrat boʻladigan xususiyatlar bilan sugʻorilgan. Shuning uchun boʻlsa kerak hofizlik sanʼati sertarmoq, tartibli, tarkibli, muayyan qonuniyatlarga asoslangan va, albatta oʻziga xos ananalarini yuzaga keltirgan soha desak, adashmagan

¹ Karimov O.I., Oʻquv qoʻllanma “Cholgʻu ijrochiligi va ansambli” Buxoro- 2019y. 18 bet

балетном пространстве	
С. В. Богдан. Смехотерапия как универсальная технология социально-культурной деятельности в воспитании базовой культуры подростков	73
Аксёнова М. В., Тарасова Ю. Б. Образовательные программы русской православной церкви как средство сохранения традиционной культуры России	79
Д.Реймов. Эмпатия как условие организации процесса обучения игре на скрипке в младшей возрастной группе	82
O‘rinov A.A. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari	85
Муродов М.Қ. Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг вазифалари	88
Qayumov I.F. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksalib borishida san'atning tutgan o'rni	91
Umurova M.Yo. O'yin bola tarbiyasining muhim vositasi	93
Shamsiyev Sh.I Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy ijodkorlik faoliyati	96
Хомидов Х.К. Талабаларда ватанга садоқат ғоясини шакллантиришнинг асосий мезонлари	98
Д.З.Ражабов. Халқ кўшиқларида композиция муаммоси	101
Моянов Ықласбай Жийенбаевич. Қорақалпоқ фольклор санъатининг ёшлар маънавий -ахлоқий тарбиясига таъсири	103
Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda musiqa va qo'shiqchilik san'ati	106
X.Axrоров. Bolalar tafakkurini rivojlantirishda musiqa fanining o'rni	107
Бобуршоҳ Нуруллаев. Ўзбек халқ кўшиқлари – бадий тушунчани ўстирувчи восита	110
Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев, С.Б. Саидий. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти	112
Munisa Uzakova. Adabiyot va musiqa fanlarini o'qitishda integratsiya	117
4-ШЎБА. ЎЗБЕК ХАЛҚ КЎШИҚЛАРИ - ХАЛҚИМИЗНИНГ БЕҚИЁС МАЪНАВИЙ МЕРОСИ	
Norova Sh.U. Xalq musiqa ijodini o'rganishda xalq qo'shiqlarining o'rni	120
Qo'shayev I.A O'zbek xalq musiqa ijodi	122
Qurbonov J.J. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning qo'shiq aytish malakalarini ostirish	123
Karimov O.I. Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti	125
Raxmatova M.O. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda hofizlik san'ati	127
Ramazonova O'.X. An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tanlash va tarbiyalash	129
Rahmonova I.M. O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda qo'shiqlarning o'rni	131
Gulov Sadritdin Niyozovich. Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati darslari"ning mohiyati	133
Ибодова Севарабону. Умумий ўрта таълим мактабларида халқ кўшиқларининг тарбиявий аҳамияти	135
Ibodov O'.R. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish	139
Axrоров X.X. Shaxsni tarbiyalash va shakllantirishda musiqaning o'rni	141
Давлатназар Юсупов. Ўзбек бахшичилик санъатининг ривожи ва ёшлар	143